



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очиллов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

9. Боронов, Б. (2022). Маҳсулот таннархнини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 31-42.
10. Боронов, Б. Ф. (2022). Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. *ISSN 2181-3191 Volume 1, issue 7 OCTOBER 2022*, 202284.
11. Farkhodovich, Boronov Bobur. “Improvement of financial reporting on finished products in the oil industry of the republic of uzbekistan”. *gwalior management academy* 25: 38.

UDK: 338.4:664

O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARI FAOLIYATIDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В РАМКАХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE FOOD INDUSTRY WITHIN THE ACTIVITIES OF INDUSTRIAL SECTORS IN UZBEKISTAN

Madaminov Anvar Mamayunusovich

Farg‘ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Oziq-ovqat sanoati sanoat tarmoqlari faoliyatida o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki u aholi ehtiyojlarini qondirishda bevosita rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada sanoat tarmoqlari faoliyati kontekstida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Asosiy jihatlar qatoriga ba’zi xomashyo turlarining mavsumiyligi, transportdagi cheklovlar, bozor talablari asosida diversifikatsiyalash zaruriyati, shuningdek ishlab chiqarishni agrar tizimlar bilan, jumladan, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, baliqchilik va parrandachilik bilan integratsiya qilish kiradi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, boshqaruv, strategik boshqarish, boshqarish mexanizmi, boshqaruv strukturasi, inson omili.

Пищевая промышленность занимает особое место в деятельности отраслей промышленности, поскольку она непосредственно участвует в удовлетворении потребностей населения. В данной статье анализируются особенности развития пищевой промышленности в контексте деятельности отраслей промышленности. К ключевым аспектам относятся сезонность некоторых видов сырья, ограничения в транспортировке, необходимость диверсификации производства в соответствии с требованиями рынка, а также интеграция производства с аграрными системами, включая сельское хозяйство, животноводство, садоводство, рыбное хозяйство и птицеводство.

Ключевые слова: пищевая промышленность, управление, стратегическое управление, механизм управления, структура управления, человеческий фактор.

The food industry occupies a special place among other industries, as it directly contributes to meeting the needs of the population. This article analyzes the development of the food industry within the context of these industries. Key aspects include the seasonality of certain raw materials, transportation constraints, the need to diversify production in line with market demands, and the integration of production with agricultural systems, including agriculture, livestock farming, horticulture, fisheries, and poultry farming.

Keywords: food industry, management, strategic management, management mechanism, management structure, human factors.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil raqamlashtirish natijasida sanoat korxonalarini barqaror faoliyat olib borishiga erishilmoqda. Bu esa birlamchi sanoat mahsulotlari import hajmini asta sekin kamayib borishini ta'minlash imkonini beradi. Jahon iqtisodiy reytingida mamlakatimiz aholisining daromadi belgilab qo'yilgan o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatga aylanishda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining amalga tatbiq qilish orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda yalpi ichki mahsulotda sanoat ishlab chiqarishining ulushini orttirib borish orqali erishish mumkin. Qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich moslashib borayotgan mamlakatimizda sanoat tarmoqlari asta-sekin takomillashib, yil sayin sanoat uchun zarur bo'lgan infratuzilma shakllanib bormoqda.

Sanoat tarmoqlarini kompleks rivojlantirish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strategiya va dasturlar bilan uyg'unligi muhim omil sifatida e'tiborga olinadi.

Y.Polojensova, N.Klevsova hozirgi vaqtda sanoat rivojlanishining o'zgarishi sharoitida rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari kengayib boradigan holatga o'tdilar va korxonalarda nafaqat texnologiyalarni, balki ushbu texnologiyalarni yangi rejimda ishlashga imkon beradigan boshqaruv tizimini ham joriy etdilar. "Shu asosda boshqa davlatlarda ham shu kabi tajribani qo'llash kelajakda sanoat rivojlanishiga katta turtki bo'lishini ta'kidlaganlar" [3].

E.Vetrova va L.Lapochkina esa tadqiqotlarida sanoat rivojlanishining zamonaviy nazariyasi asosiy qoidalari davlat darajasida strategik qarorlar qabul qilishda ham hisobga olinishi yaxshi samara berishiga e'tibor qaratilgan. Sanoatni rivojlantirishning tobora kuchayib borayotgan muammolari nazariya va uning amalga oshirilishida ba'zi qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. "Shuningdek, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni nazariy va amaliy jihatdan baholash va ularni muvofiqlashtirish yo'nalishlarini aniqlash zarurligini ta'kidlaganlar" [4].

Bizningcha, yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib, fikrlarni umumlashtirgan holda, sanoat bu insoniyatni barcha ehtiyojlarini qondirish va aholini turmush darajasini yaxshilash uchun xizmat qiladigan bir nechta tarmoq jamlanmasidir. Ushbu jarayon barcha iste'molchilar (aholi, korxonalar, davlat va boshqalar) talabini qondirish natijasidagina sanoat tarmoqlarining uzluksiz faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Sanoatning barcha tarmoqlari faoliyati uzluksizligini ta'minlashda respublikada soha faoliyatiga doir qonun va qarorlar qabul qilinayotganligi strategik jihatdan to'g'ri yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.

Tarmoq tuzilmasi deganda, uning umumiy tarkibi, tarmoqlararo nisbatlar va o'zaro aloqadorlik munosabatlari tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi unda yuz bergan va yuz beradigan o'zgarishlarni aks ettirib, pirovardida sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi [5,6].

Hozirgi paytda barcha mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlari 18 kompleks tarmoqni o'z ichiga oladi.

Sanoatning kompleks tarmog'i mamlakat iqtisodiyotiga turlicha yo'nalishlarda ta'sir o'tkazadi:

- infratuzilmalarni shakllanishi;
- iqtisodiy xavfsizlik;
- texnologik yangilanish;
- iqtisodiy rivojlanish;
- bandlik.

Yuqorida keltirilgan sanoatning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir doirasida mamlakatdagi sanoat tarmoqlarining umumiy infratuzilmasini rivojlanishi, sanoat mahsulotlari importiga qaramlikni oldini olish hamda texnik va texnologik jihatdan rivojlanishni amalga oshirish mumkin [7; 8].

Iqtisodiyotda sanoatning rivojlanishi mamlakatdagi qonun va qonunosti hujjatlarining mavjudligiga ham bog'liq hisoblanadi. Sanoatning rivojlanib ravnaq topishida qabul qilinayotgan qonunlar katta ahamiyatga ega. Qonun hujjatlari sanoatning barcha sohalarini tartibga solib, ularning barqaror va samarali faoliyatini ta'minlaydi. Mamlakatda sanoat tarmog'ining rivojlanish jarayonida

amal qilayotgan soliq qonunchiligi, mehnatga oid huquqiy normalar va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan talablar muhim ahamiyat kasb etadi.


Sanoatni rivojlantirish jarayonida qonunlar iqtisodiyotni boshqarish va maqsadli yo‘naltirishda hukumatning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, barqaror va uzoq muddatli o‘shirishga erishishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

O‘zbekiston sanoatining rivojlanishida qonun hujjatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar mamlakatning iqtisodiy o‘shirishiga, yangi texnologiyalar joriy etilishiga, investitsiyalarni jalb qilishga va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Yuqoridagi qonun hujjatlarining sanoat rivojlanishidagi o‘rni aniq dalillar va misollar bilan ko‘rsatilgan.

Fikrimizcha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qonun hujjatlari va ularning amaliy natijalari O‘zbekiston sanoatining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu qonuniy hujjatlar mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga zamin bo‘lmoqda.

Iste‘molchilarning eng zarur ehtiyojlarini qondirish oziq-ovqat sanoati mahsulotlari orqali amalga oshadi. Natija samarasi o‘laroq mamlakat aholisining hayot tarzi yaxshilanadi. “Jahon mamlakatlaridagi hozirgi vaziyat, bir tomondan, uchinchi dunyo mamlakatlarida juda ko‘p sonli och odamlarning mavjudligi bilan, boshqa tomondan, rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish va uning iste‘molidagi isrofgarchilik bilan xarakterlanadi”.

Rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, ularning yetishmovchiligi ayrim holatlarda strategik xomashyo, qimmatbaho resurslar yoki siyosiy imtiyozlar evaziga import qilinishiga olib kelmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligining muhim tashqi omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining umumiy tarkibiy tuzilishi

Manba: muallif ishlanmasi

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini tashkil qilishda ilmiy asoslangan boshqaruv qonuniyatlariga asosan ish ko‘rish samarali natijalarga erishishni ta‘minlaydi. Ushbu jarayonda oziq-ovqat sanoati korxonalarining alohida xususiyatlarini hisobga olishdagi asosiy omillar ko‘rsatib o‘tilgan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini samarali boshqarishda tashqi raqobat kuchlariga qarshi turishga moslashtirish, o‘z mahsulotlari bozorining bir-biridan doim ajralib turadigan talab qonuniga javob berishga sharoit yaratib beradi (1-rasm).

Oziq-ovqat sanoati faoliyatini quyida keltirilgan 4 ta asosiy omillarni eʼtiborga olgan holda yoʻlga qoʻyish tavsiya etiladi:

1. Aholi soni koʻp boʻlgan hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki bu hududlarda xaridorgirlik darajasi nisbatan yuqoriroq boʻladi. Ayniqsa, tezda yaroqsiz holga keladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi subyektlar uchun bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Oziq-ovqat sanoati subyektlarini joylashtirishda logistika bilan bogʻliq xarajatlar muhim omil sifatida qaraladi. Masalan, konservalangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini dengiz mahsulotlari manbalariga yaqin hududlarda tashkil etish orqali transport xarajatlarini kamaytirish mumkin.

3. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqa sanoat korxonalariga nisbatan koʻproq ishchi kuchini talab etadi. Shu bois, bu kabi ishlab chiqarish obyektlarini mehnat resurslari koʻp boʻlgan va aholi zich yashaydigan yirik hududlarda joylashtirish afzal hisoblanadi.

4. Turli xil assortimentdagi ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini tabiiy suv zaxiralari moʻl hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirishda bu soha bilan bogʻliq boʻlgan boshqa tarmoqlarning texnologik va tashkiliy xususiyatlarini ham hisobga olish muhim. Ushbu sanoatning ayrim yoʻnalishlari mamlakat boʻylab barcha iqtisodiy hududlarda joylashtirilishi lozim boʻlsa, baʼzi tarmoqlar esa faqat muayyan hududlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan korxonalar qatoriga qandolat, un va un mahsulotlari va makaron mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar kiradi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda mustaqillik yillaridan keyingi bosqichda sanoatning rivojlanib borishi hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotida uning ulushini orttirib borishi iqtisodiyotning ravnaq topib borayotganini koʻrsatib beradi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari importini umumiy import mahsulotlari tarkibida qisqarib borishi ham iqtisodiy, ham oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash borasidagi qilinayotgan ishlarning natijasi sifatida qaraladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarishidagi hissasini bosqichma-bosqich oshirish nafaqat aholining sifatli mahsulotlarga boʻlgan ehtiyojini qondiradi, balki yashash darajasi va turmush sifati yaxshilanishiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Шаталова А.Н. Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.
2. Ангелина И.А., Салита С.В. Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности: методический аспект. Вестник института экономических исследований 2018, № 4(12). 34-41 стр.
3. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. АМШ 149 б. А. – 2009. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 - №5 с. 23-29.
4. Архипов В.М. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. - СПб: Изд-во СПб гос. ин-та экономики и финансов, 1998. - 161 с.
5. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. - М.: Политиздат, 1981. - 432 с.
6. П.Баранчеев В. Стратегический анализ: технология, инструмент, организация // Проблемы теории и практики управления. - 1998. - №5. - С.85-92
7. Баутин В.М. Информационное обеспечение агропромышленного комплекса: методология, организация, эффективность. - М.: Колос, 1992. - 200 с.
8. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». –Т.: O‘quv qo‘llanma. «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016.12-b.